
Aholi murojaatlari o'z yechimini topmoqda

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi boshlig'i A.Madaminov boshchiligida Farg'ona shahridagi ko'p kvartirali uylarda istiqomat qiluvchi fuqarolar uchun ommaviy sayyor qabul tashkil etildi.

Sayyor qabulda "Ko'p xonadonli uylarni va issiqlik ta'minoti ob'ektlarini qurish bo'yicha injiniring kompaniyasi" DUK, Ko'p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi, shaharda faoliyat olib boruvchi boshqaruv tashkilotlari rahbarlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

20 nafarga yaqin aholining murojaati qabul qilinib, ularning aksariyatini ijobiy hal etish uchun joyida mas'ullar belgilandi va qat'iy topshiriqlar berildi. Vaqt va joyiga chiqqan holda o'rganish lozim bo'lgan murojaatlarni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

2022-08-17 14:59:56